

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: IMKONIYAT VA MUAMMOLAR

Donaboyeva Ziyoda Muxiddin qizi

Bugungi kunda dunyo bo'yicha raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirish, o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim jarayonini qulaylashtirish imkonini bermoqda.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali darslarni interaktiv tarzda olib borish, masofaviy ta'limni rivojlantirish, elektron kutubxonalar, onlayn test va topshiriqlar orqali bilimni baholash imkoniyatlari yaratilmoqda. Bundan tashqari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishda bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, internet tarmog'ining sifati va barqarorligi, barcha hududlarda texnik imkoniyatlarning teng emasligi o'quvchilar uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirmoqda.

Ba'zi hollarda pedagoglarning yangi texnologiyalar bilan ishlash malakasi yetarli emasligi, o'quvchilarning esa texnologiyadan samarali foydalanish madaniyati shakllanmaganligi kuzatilmoqda.

Demak, raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin, ammo buning uchun muammolarni tizimli hal qilish, pedagoglar va o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish, zarur infratuzilmani yaratish lozim.

Yakun qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ulkan imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ularni samarali qo'llash orqali bilim olish jarayoni yengillashadi, ta'lim sifati oshadi, yoshlar global axborot makoniga faol integratsiya qilinadi.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish davlat, ta'lim muassasalari va jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.